

2019-yil

**2018 - 2019 – O'QUV YILIDA O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING**

**9 - SINIF O'QUVCHILARI UCHUN ONA TILI FANIDAN
MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN**

IJODIY BAYON NAMUNALARI

ONA TILI

Telegram kanal: @uzimtihon

Murojaat uchun: uzimtihon_admin

Bayon matnlari uchun namuna:

VATAN TUYG`USI

O'shanda bahorning go'zal kunlaridan biri edi. Buvimlarnikiga bordim. Ayvonda uya qurgan ikki qaldirg'ochga ko'zim tushdi. Bolalari ham bor ekan. Ularning harakatlarini kuzata boshladim. Buvim esa qaldirg'ochlarga qiziqib qolganimni ko'rib, ular haqida so'zlay boshladi. Qaldirg'ochlar bu yerga in qurganlaridan so'ng yana ularning jajji bolachalari tug'ilganini, ota qaldirg'och azonlab uchib ketib, kech qaytishi, ona qaldirg'och uyasidan uzoqqa bormay, yaqin oradan bolalariga yegulik olib kelib berishi haqida aytib berdi. Ertasiga uyimga qaytdim.

Yoz boshlandi. Bir necha kunga yana buvimlarnikiga bordim. Qiziq, qaldirg'ochlar yo'q-ku. Uyachalari esa joyida. Buvim yozda qaldirg'ochlar boshqa o'lkalarga ketishini, ammo tez-tez kelib uyalarini ko'zdan kechirib ketishini aytdilar. Ammo uch haftadan buyon ulardan darak yo'q. Uyalariga esa musichalar kirib olishyapti ekan. Oradan ikki kun o'tgach, qiziq voqea yuz berdi.

Ertalab kun chiqar-chiqmas vaqtda qandaydir shovqindan o'yg'onib ketdim. Qarasam, qaldirg'ochlar uyasini ko'rishga kelibdi va u yerda begona qushning kirib olganini ko'rib, hamma yoqni boshiga ko'tarib chirillar edi. Musicha esa bu vazohatdan tezroq qutilish uchun tezda uchib ketdi. Buvim aytganidek, jonzoatlarning oilasi, otasi, onasi, bolasi bo'lganidek, o'z uylari ham bor.

O'z uyini sevish, himoya qilish uni vatan deb bilish faqatgina odamzotga xos xususiyat emas.(180 ta so'z)

BAXT KALITI

Bir savdogar o'g'lini eng katta donishmandning huzuriga baxtning kaliti – sirini bilib kelish uchun jo'natibdi. Yigit sahroda qirq kun yo'l yuribdi va nihoyat, ulkan tog'ning tepasida haddan ziyod muhtasham bir qasrni ko'ribdi. U qidiringan Donishmand shu qasrda yashar ekan. Kutganiga zid o'laroq qasr avliyo odamning xilvat go'shasiga o'xshamasdi. Uning ichi odamga to'la edi: savdogarlar mollarini maqtab har tomon yugurishar, burchak-burchaklarda odamlar to'p-to'p bo'lib gurunglashar, sozandalarning kichik bir dastasi qandaydir nafis kuyni ijro etar, zalning o'rtasida esa kattakon stol, uning ustiga dasturxon tuzalgan, dasturxon esa bu yurtning eng noyob va tansiq taomlari, bag'oyat xushta'm noz-ne'matlariga to'la edi. Donishmand shoshmasdan mehmonlar bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Yigit navbati kelishini ikki soatcha kutib qoldi. Nihoyat, Donishmand yigitning nima maqsadda kelganini bildi, lekin hozir unga baxtning kaliti – siri nimada ekanini tushuntirib berishga vaqti yo'q ekanini aytdi.

Donishmand yigitga chiqib qasrni tomosha qilishni va ikki soatlardan keyin bu yerga – zalga qaytib kelishni buyurdi. «Sendan yana bir iltimosim bor, – dedi u yigitga ichiga ikki

tomchi yog' solingan choy qoshig'ini uzatib. – Bu qoshiqni o'zing bilan olib yur, faqat ehtiyot bo'l, ichidagi yog'i to'kilib ketmasin». Yigit qoshiqdan ko'zini uzmagani holda qasrni aylandi, uning zinalaridan tepaga ko'tarildi, pastga tushdi va, nihoyat, ikki soat o'tgach, Donishmandning ro'parasida yana namoyon bo'ldi. «Xo'sh, qalay, – deb so'z qotdi Donishmand. – Koshonadagi fors gilamlari senga manzur bo'ldimi? Benihoya mirishkor bog'bonlar o'n yildan beri ko'zining oq-u qorasidek avaylab parvarish qilayotgan bog'dagi gullar va daraxtlar yoqdimi?

Kutubxonadagi qadimiy kitoblari va nodir qo'lyozmalar-chi? » Xijolatdan qizarib ketgan yigit bularning hech qaysisini ko'rmaganini tan oldi, negaki, uning butun diqqat-e'tibori Donishmand unga ishonib topshirgan ikki tomchi yog'da bo'lgan ekan.

XASISLIK – YOMON ODAT

Hazrat Mavlono Jaloliddinrumiy masnaviysida xasislikning yomonligi haqida so'z yuritarkan, bir xasis odamning hikoyasini keltirdi. Xasisligi bilan o'z zamonasida dong taratgan bir badavlat odam bor ekan. Bu davlatmand odam eng xasis, eng ziqna odam sifatida mashhur bo'libdi. Bu xasis bir kun jomega jamoat bilan namoz o'qishga bordi. Jomeda namoz o'qiyotib, birdan : "Uydagi chiroqni o'chirganmidim, o'chirmaganmidim", – deb o'ylanib qoldi. Shu zahoti shoshilib turib, uyiga bordi. Eshikni taqillatdi.

Xizmatchi : "Kim u ?", – deb ovoz berganda, xasis:

– To'xta , eshikni ochma! Xonamdagi chiroq yonib bo'lsa, o'chirib qo'y, yog'i tugab qolmasin tag'in, – dedi.

Xizmatchi :

– Xo'p, afandim. Chiroqni ochirishni tushundim, ammo nega eshikni ochmayin, tushunmadim,– dedi.

Xasis odam :

– Eshikning oshiq-moshg'i yedirilmasligi uchun , – deb javob berdi.

Xizmatchi :

– Qoyil, afandim, ammo siz masjiddan bu yerga kelguncha poyabzal eskirishini o'ylamadingizmi? – dedi

Xasis :

– Sen nima, tentakmisan? Meni yaxshi bilasan, masjiddan kelguncha poyabzalimni eskirishiga qo'yamanmi? Poyabzalimni qo'ltig'imga qisib olib, yalangoyoq keldim, – dedi.